



## The status and the role in social life, of religious organizations in the constitutions and the laws of foreign countries

**Firuz RASHIDOV<sup>1</sup>**

International Islamic Academy of Uzbekistan

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received February 2023

Received in revised form

15 February 2023

Accepted 15 March 2023

Available online

25 April 2023

**Keywords:**

religion,  
belief,  
freedom of conscience,  
type,  
confession,  
human rights,  
globalization,  
civil society,  
religious views,  
religious feeling,  
atheism,  
theology,  
experience.

### ABSTRACT

Predicated on historic and jurisprudent, socio-economic conditions in foreign countries, a number of models of relations of state, religious and civil society organizations are formed, and an active participation of institute of religion is observed in various aspects of social life. Aforementioned relations are called state-confessional relations, the topic of inter-relations between state, religion, and other societal configurations had resulted in engaging debate-discussions for many centuries. Religion and its role in a societal life, an impact of religious organizations on activities of state and civil society institutions, the relations between state and religion are comparatively analyzed on the basis of constitutions and laws of countries in this article. The participation of religious institutions of countries in society activities and consequently, based on their level, confessional typology are discussed. Emphasizing that partnership between state and religious institutions in foreign countries is dependent on cultural, historic, economic, and political factors, it is found out that political factor is overarching other factors in religious preferences at an international level. It is reported that in the contemporary multi-confessional world, it is considered to be essential that religious conflicts and divisions based on differences in religious preferences are not allowed, in morally developed countries, the existence and plausibility of resolving conflicts through the means of intelligence and communications instead of weaponry, and subsequently, that is found to be true in the history of partnerships of state and religious organizations of various countries in the world.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp42-50>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Senior teacher, International Islamic Academy of Uzbekistan, Independent researcher, Tashkent State University of Law. E-mail: rashidov77@mail.ru

## **Xorijiy mamlakatlar konstitutsiya va qonunlarida diniy tashkilotlarning maqomi va ijtimoiy hayotdagi roli**

### **ANNOTATSIYA**

**Kalit so'zlar:**

din,  
e'tiqod,  
viydon erkinligi,  
tip,  
konfessiya,  
inson huquqlari,  
globallashuv,  
fuqarolik jamiyati,  
diniy qarashlar,  
diniy tuyg'u,  
ateizm,  
teologiya,  
tajriba.

Xorijiy mamlakatlarda tarixiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqqan holda davlat, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari munosabatlarining turli xil modellari shakllanib, ijtimoiy hayotning turli sohalarida din institutining faol ishtiroki kuzatiladi. Ushbu munosabatlar davlat-konfessional munosabatlar deb atalib, davlat, din va boshqa jamoat birlashmalari o'zaro munosabatlari masalasi k o'p asrlar davomida qizg'in bahs-munozaralarga sabab b o'lib kelgan. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda din va uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni, diniy tashkilotlarning davlat va fuqarolik jamiyatining institutlari faoliyatiga ta'siri, davlat va din munosabatlari davlatlarning konstitutsiya va qonunlari asosida qiyosiy tahlil qilingan. Davlatlarda diniy tashkilotlarning jamiyat faoliyatidagi ishtiroki va o'rniga qarab konfessional tipologiyasi muhokama qilingan. Xorijiy mamlakatlarda davlat va diniy tashkilotlar o'zaro hamkorligi madaniy, tarixiy, iqtisodiy, siyosiy omillarga bog'liq ekanligi e'tirof etilib, xalqaro miqyosda diniy e'tiqod sohasida siyosiy omil ustuvor ekanligi qayd etilgan. Bugungi kunda multikonfessional dunyo muhitida diniy nizolarga, dunyoning diniy o'ziga xoslikka ko'ra bo'linishiga yo'l qo'ymaslik muhim hisoblanishi, ma'nan taraqqiy etgan jamiyatlar nizolarni qurol kuchi bilan emas balki, aql va so'z vositasida hal etishi mumkin bo'lgan tinch muloqot qila olish kuchi va imkoniyatiga ega ekanligi, bu esa jahonning turli mamlakatlarida davlat va diniy tashkilotlar o'zaro hamkorligi tarixida o'z tasdig'ini topganligi bayon etilgan.

## **Статус религиозных организаций в конституциях и законодательствах зарубежных стран и их роль в общественной жизни**

### **АННОТАЦИЯ**

**Ключевые слова:**

религия,  
убеждения,  
свобода совести,  
тип,  
вероисповедание,  
права человека,  
глобализация,  
гражданское общество,  
религиозные взгляды,  
религиозные чувства,  
атеизм,  
теология,  
опыт.

В зарубежных странах, исходя из историко-правовых и социально-экономических условий, формируются различные модели взаимоотношений между государством, религиозными организациями и другими институтами гражданского общества. В этих моделях религиозные институты активно участвуют в различных сферах общественной жизни. Эти взаимоотношения называются государственно-конфессиональными отношениями, а вопросы о взаимодействии государства, религии и других общественных объединений являются предметом острых дискуссий на протяжении многих веков. В данной статье

проводится сравнительный анализ роли религии в общественной жизни зарубежных стран, влияния религиозных организаций на деятельность государственных и общественных институтов, государственно-религиозных отношений на основе конституции и законов. В различных странах рассматривалось участие религиозных организаций в деятельности общества и конфессиональная типология. Признается, что взаимодействие между государством и религиозными организациями в зарубежных странах зависит от культурно-исторических, экономических и политических факторов. Отмечается, что политический фактор является приоритетным в сфере религиозных убеждений на международном уровне. Сегодня, в условиях мультиконфессионального мира, важно избегать религиозных конфликтов и разделения мира по религиозной идентичности. Развитые общества имеют возможность мирного общения и решения конфликтов не силой оружия, а посредством разума и слова. Это подтверждается историей взаимодействия государственных и религиозных организаций в разных странах мира.

Fuqarolik jamiyati shakllanishining uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonida diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'zaro aloqalarida din fenomeni murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida insoniyat madaniyatida mustahkam o'rin egallab bugungi kunda zamonaviy dunyoning ajralmas qismiga aylandi.

Davlatlarda tarixiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqqan holda davlat, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari munosabatlarining turli xil modellari shakllanib, ijtimoiy hayotning turli sohalarida din institutining faol ishtiroki kuzatilmoqda. Ushbu munosabatlar davlat-konfessional munosabatlar deb atalib, davlat, din va boshqa jamoat birlashmalari o'zaro munosabatlari masalasi ko'p asrlar davomida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Odamlarni har doim ma'naviy va moddiy, shaxsiy va ijtimoiy hayot o'rtasidagi munosabatlar muammosi xavotirga solgan va hozir ham xavotirga soladi.

Butun dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlarni kuzatib shuni ta'kidlash mumkinki, XXI asrda XX asrdagiga qaraganda dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli oshib bormoqda. Davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning shakl va usullari muayyan mamlakatlarda tinchlik yoki turli nizo va kelishmovchiliklarning asosi sifatida qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida davlat va diniy tashkilotlar, shuningdek, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi hamkorlikning tashkiliy huquqiy asoslarini chuqurroq tushunish, tahlil qilish, uning rivojlanish istiqbollari o'rganish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasiga murojaat qilamiz.

Buning uchun esa davlatlarning konfessional tipologiyasini ularning diniy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi mezonlarini farqlashimiz lozim bo'ladi.

Din ming yillardan buyon mavjud murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lishiga qaramasdan turli kuchlar va siyosatchilar tomonidan undan tijoriy yoki boshqa iqtisodiy, siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida vosita sifatida foydalanishga urinish holatlari

uchramoqda. Din negizidagi har qanday nizo o'ta salbiy hodisa bo'lib bugun ushbu hodisadan manfaatdor bo'lgan shaxslar ertaga o'zlari ham undan jabr ko'rishlari mumkinligini tushunib yetmayaptilar. Davlatlarning diniy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik darajasi, jamiyat ma'naviy-huquqiy madaniyatining konstitutsiyaviy asoslari, o'ziga xosliklari, unda ustuvorlik qiluvchi din hamda davlat rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazgan din orqali tavsiflanadi.

Olimlar davlatlar tipologiyasini davlat-konfessional munosabatlardan kelib chiqib bir necha turlarga bo'lib tavsiflaydilar. Rus olimasi L.A. Morozova [1, 57-9-b]. ularni teokratik, klerikal, dunyoviy va ateistik davlatlarga bo'lib o'rganishni taklif qilsa, M.S. Topchiev [2, 172-b] klerikal, teokratik va dunyoviy davlatlarga bo'ladi. P. Klitur va A. Ellianlar [3], davlatlarni ateistik, teokratik, rasmiy dinli, multimadaniyatli va sekulyar davlatlarga ajratishni taklif qilsa, yana bir rus tadqiqotchisi rasmiy dinga ega bo'lgan davlatlar, teokratik (diniy) monarxiya, davlat-diniy avtonomiya, diniy bo'lmagan davlat va antiklerikal davlatlarga [4], bo'lishni taklif etadi.

M.S. Topchiev L.A. Morozovadan farqli holda ateistik tipni e'tiborga olmasa, P. Klitur va A. Ellianlar q o'shimcha multimadaniyatli tip mavjudligini ham nazarda tutadilar. Bugungi kunda dunyoda integratsiyalashuv jarayonlari jadallashib, inson huquqlarining ustuvorligi, xususan vijdon va e'tiqod erkinligi insonning ajralmas shaxsiy huquqi ekanligi e'tirof etilsa-da, XX asrda katta ta'sirga ega bo'lgan sotsialistik lagerning davomchilari hozirgi kungacha ana shunday mafkura bilan hayot kechiradi.

P. Klitur va A. Ellianlarning fikricha esa multtimadaniyatli jamiyatlarda bir necha dinlarga erkinlik berish bilan birga diniy jamoalar a'zolari o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun maxsus diniy sudlar tashkil etilishi nazarda tutiladi. Bunga Kanada davlati misol qilib keltiriladi. Lekin bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi.

Chunki huquqiy ong va madaniyat yuksak darajada shakllangan, fuqarolik jamiyati institutlari samarali faoliyat olib borayotgan jamiyatlarda vijdon erkinligi va e'tiqod masalasi har bir shaxsning shaxsiy individual huquqi sifatida hurmat qilinadi. Huquqiy madaniyat yuqori darajada shakllanmagan jamiyatlarda esa bu jiddiy qarama-qarshilik va nizolarga sabab bo'lishi mumkin. P. Klitur va A. Ellian tomonidan multimadaniyatli tip deb baholangan davlatlarni fuqarolik jamiyati institutlari yuqori darajada rivojlangan, iqtisodiy taraqqiy etgan dunyoviy davlatlarlar deb baholashni taklif etamiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib L.A. Morozovaning yondashuvlariga qo'shilgan holda davlat-konfessiyaviy hamkorlik mezonlarini quyidagi tiplarga ajratib o'rganishni maqsadga muvofiq.

1. Teokratik davlatlar.
2. Davlat diniga ega bo'lgan davlatlar (klerikal).
3. Dunyoviy davlatlar (sekulyar).
4. Ateistik davlatlar.

Ushbu tiplarni birma-bir tahlil qilib ularning quyidagi o'ziga xos jihatlarini qayd etish mumkin:

1. Teokratik tipga mansub davlatlar o'rta asrlarda taraqqiy etgan bo'lib dunyoda bugungi kundagi sekulyar jarayonlarni inobatga olib sanoqli davlatlar teokratik tipga mansubligini qayd etish mumkin. "Teokratik davlatlarning ikki xil ko'rinishi mavjud bo'lib bular – teokratik monarxiya (Vatikan, Saudiya Arabistoni, Baxrayn, Qatar, O'mon sultonligi) va teokratik respublika (Eron Islom Respublikasi)"lardir [5, 83–89-b].

Teokratik davlatlarda davlatning diniy tashkilotlar bilan hamkorligi haqida soʻzlash imkonsiz, chunki davlatning oʻzi din asosida boshqariladi. Bunday davlatlarning oʻziga xosligi shundan iboratki, undagi oliy davlat hokimiyati oʻzida dunyoviy va diniy hokimiyatni birlashtiradi. Butun huquq tizimi diniy printsiplarga asoslanadi, davlat esa diniy maqsadlarni roʻyobga chiqarish uchun faoliyat olib boradi. Masalan, Vatikan shahar-davlati boshida bir vaqtning oʻzida Rim katolik cherkovi rahnamosi va Vatikan monarxi sanaluvchi Rim Papasi turadi. “Vatikanda asosiy huquq manbasi sifatida kanon huquqi kodeksi (codex juris canonici) va apostollarning qarorlari tan olinadi” [6, 594-b].

Yana bir teokratik davlat- Saudiya Arabistonida Konstitutsiya mavjud emas. Butun huquq tizimi poydevori Qurʼoni Karim va shariat normalariga asoslanadi. Mamlakatda barcha fuqarolar islom diniga eʼtiqod qilishlari majburiy hisoblanadi. 1992-yilda qabul qilingan Nizomda qirollik hokimiyatining asoslari mustahkamlab qoʻyilgan boʻlib, uning boshida davlat rahbari va maʼnaviy yetakchi funksiyalarini birlashtiruvchi monarx turadi.

Eron Islom Respublikasi ham teokratik davlat boʻlib uning 1978-yil Konstitutsiyasida davlatning diniy xarakteri yaqqol oʻz ifodasini topgan. U Konstitutsiyaning muqaddimadan boshlab butun matnida: “Eron Islom Respublikasi Konstitutsiyasi islom arkonlari negizida Eron jamiyatining islom millati(ummat)ning ezgu intilishlari roʻyobi sanalgan madaniy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy institutlarini oʻzida aks ettiradi” [7, 225-b], deyiladi. Eron rasman faqatgina bitta dinga eʼtiqod qilish mumkin boʻlgan teokratik respublika hisoblanadi. Teokratik davlatlarning tuzilishidan koʻzlangan maqsadlarni inobatga olib anglash mumkinki, ushbu davlatlarda konfessiyalar rang-barangligi, shuningdek, davlat va diniy tashkilotlarning oʻzaro hamkorligi mavjud emas. Davlat teokratik hisoblanadi va uning oʻzi diniy shaklni ifodalaydi, unda diniy va dunyoviy asoslar birlashgan boʻladi. Mazkur modelning eng muhim ijobiy jihati sifatida madaniy va axloqiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi aholining yuqori darajada dindorligi koʻrsatkichi koʻrsatilsa, salbiy jihat sifatida diniy eʼtiqod erkinligining mavjud emasligi qayd etiladi.

2. Davlat diniga ega boʻlgan davlatlarning aksariyati Yevropa mamlakatlari boʻlib, diniy davlatni qurish va himoya qilish ularning asosiy maqsadi boʻlmaganligi uchun ular teokratik davlatlar hisoblanmaydi. Bunday davlatlarga Angliya, Gretsiya, Daniya, Islandiya, Norvegiya, Finlyandiya, Shotlandiyani kiritish mumkin. Ushbu davlatlarda katoliklik yoki protestantizmning muayyan yoʻnalishi davlat dini sanaladi. Davlat dini, shuningdek, Osiyo va Afrika mamlakatlarida ham mavjud. Bularga Jazoir, Bahrayn, Misr, Iroq, Mavritaniya, Quvayt, Malayziya kabi davlatlar misol boʻla oladi. Bu davlatlarda esa islom davlat dinidir.

Davlat cherkovi, garchi ayrim hollarda uning mustaqillikka intilishi kuzatilsa-da, yetarlicha mustahkam tarzda davlatga bogʻliqdir. Davlat cherkovni moliyalashtirish, uning tuzilmasi va boshqaruvini, shuningdek, diniy taʼlimni nazorat qiladi va amalga oshiradi. Diniy tashkilot davlat apparatining bir qismi sanaladi.

Buyuk Britaniyada anglikanlik – protestantizm yoʻnalishlaridan biri davlat dini sanaladi. Anglikan cherkovining rahnamosi ingliz qirolini hisoblanadi. “Buyuk Britaniyada qirol xonadonining boshligʻi davlat cherkovining rasmiy rahnamosidir. Kenterberiy arxiepiskopi anglikan cherkovida cherkov ierarxiyasiga boshchilik qilmaydi, balki monarxning cherkov ishlari boʻyicha noibi hisoblanadi. Barcha arxiepiskoplar va yepiskoplar bosh vazir tavsiyasiga binoan qirol tomonidan tayinlanadi. Faqatgina anglikan cherkovi milliy ahamiyatga molik voqealar tashkilotchisi sifatida k oʻriladi va parlamentda oʻz oʻrniga ega” [8, 125-b].

Davlat diniga ega mamlakatlar qatoriga Gretsiya Respublikasini ham kiritish mumkin. “Gretsiyaning 1975-yilgi Konstitutsiyasida belgilanishicha, Gretsiyada hukmron din sifatida sharqiy-pravoslav nasroniy cherkovi tan olinadi (3-modda)”. Konstitutsiyada Muqaddas Afon tog‘ining Gretsiya davlatining o‘zini o‘zi boshqaruvchi qismi sifatidagi maqomi mustahkamlab qo‘yilgan (105-modda)” [9].

“Davlat cherkov ustidan nazoratni amalga oshiradi va uni ayrim davlat muassasalariga xos vakolat va huquqlar bilan ta‘minlaydi. Davlat qonuni maqomiga ega Ellada cherkovi Nizomi cherkovga, uning yepiskopliklariga, qavmlariga, monastirlariga va boshqa cherkov muassasalariga nisbatan korporativ ommaviy huquq sub’yektlari darajasini mustahkamlab qo‘yadi”. [10, 107-b].

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Gretsiya aholisining 97 % Pravoslav cherkoviga mansub bo‘lib, pravoslaviya qoidalari maktab umumta‘lim dasturlariga majburiy predmet sifatida kiritilgan, Gretsiya universitetlarining har birida ilohiyot fakultetlari mavjud bo‘lib, cherkov ta‘lim sohasidan tashqari faol ijtimoiy faoliyat ham olib boradi.

Davlat diniga ega bo‘lgan mamlakatlarda dinga muayyan darajada ustunlik va soliq imtiyozlari berilishi bilan birga, davlat uchun javob berish mas‘uliyati ham yuklanadi.

Misr Arab Respublikasi Konstitutsiyasida ham mamlakatning rasmiy dinga ega ekanligi va ayni paytda boshqa din va e‘tiqod egalarining ham huquq va erkinliklari hurmat qilinishi e‘tirof etiladi [11, 68-b].

Ushbu tipning muayyan din va uning qadriyatlariga ustuvorlik berishi va davlat ishlariga aralashuvi har doim ham oqlanmaydi. Jumladan, rus pravoslav cherkovi patriarxi Aleksey II ning fikricha “...davlat dini maqomi insonlarga ko‘plab musibatlar keltiradi. Cherkov davlatdan alohida bo‘lishi kerak. U mamlakatda sodir bo‘layotgan barcha voqe‘liklarga ruhoniyyat va axloq nuqtai nazaridan mustaqil baho berish huquqiga ega bo‘lishi lozim” [12, 640-b].

Dunyoviy davlatlar tipologiyasiga to‘xtalib aytish mumkinki, Yevropa, ayrim Osiyo va Markaziy Osiyo, shuningdek, AQSH dunyoviy davlatlar hisoblanadi. Davlatning konfessiyalar bilan ushbu tarzda hamkorligi rejimi diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilishini nazarda tutadi.

Dunyoviy davlatlarning ikkita modeli tavsiflanib ular separatsion va kooperatsion modellardir. Separatsion modelda davlat diniy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishdan o‘zini chegaralaydi. Kooperatsion modelda esa davlat muayyan sohalarida diniy tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Dunyoviy davlatning mazkur modellari ko‘rinishlari haqida rossiyalik mashhur huquqshunos olimlar I. Ponkin [13,68-b], M. Shaxov [14, 17-25-b], N. Volodinalar [15] ham tavsif berib o‘tadilar.

Nazarimizda kooperatsion modelga mansub dunyoviy davlatlarni ham ikkita tipga ajratish mumkin bo‘lib, biri davlatning boshqalar oldida ustunlikka ega bo‘lgan bitta konfessiya bilan hamkorligi; ikkinchisi esa davlatning bir nechta konfessiya bilan teng hamkorligidir.

3. Dunyoviy davlatchilik tarixi g‘arbga, Amerika Qo‘shma Shtatlariga borib taqalib, AQSH o‘zini dunyoviy davlat deb e‘lon qilgan ilk mamlakatlardan hisoblanadi. Ushbu davlatda hech qachon rasmiy din mavjud bo‘lmagan. AQSH Konstitutsiyasiga kiritilgan birinchi o‘zgarish ham har bir amerikalik uchun dinga erkin e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqini kafolatlaydi [16]. Bugungi kunda esa Amerika Qo‘shma Shtatlari davlat va diniy tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi minimum darajani tashkil etuvchi separatsion modelga xosdir.

Dunyoviy davlatlar taraqqiyotiga XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropada davlat va cherkov o'rtasidagi funksiyalarning bo'linishi jarayonida boshlangan yevropacha sekulyarizatsiya jarayonlari katta ta'sir o'tkazdi. Ushbu jarayonlarga Fransiya Respublikasining cherkovni davlatdan ajratish va vijdon erkinligini insonning asosiy shaxsiy huquqlaridan biri ekanligini e'tirof etish haqidagi konstitutsiyada mustahkamlab qo'ygan normalari ham sabab bo'ldi.

Bugungi kunda Fransiyada diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan va bu konstitutsiya va qonunlarda o'z aksini topgan [17, 13-b].

O'zida sotsializm ta'sirini sinab ko'rgan mamlakatlar: Polsha, Bolgariya, Sloveniya, Xorvatiya, Slovakiya, Chexiya, shuningdek, Albaniya va Vengriyada davlat va din munosabatlari masalalari alohida e'tiborga molik. "Demokratik yangilanishlar boshlanishi bilan mazkur davlatlarning barchasida yangi konstitutsiyalar, ulardan bir nechtasida diniy tashkilotlar bilan munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonunlar ham qabul qilindi. Sotsialistik lagerga mansub barcha Yevropa mamlakatlari rasman dunyoviy davlat prinsiplarini e'lon qilgan bo'lsalarda, amalda davlat va din munosabatlari cherkovning rasmiy mafkuraga bo'ysundirilishi negiziga qurildi. Davlat sotsialistik ta'limotga amal qilgan holda vijdon va diniy e'tiqod erkinligini cheklovchi turli-tuman majburlov vositalarini ishga soldi. Yevropaning post-sotsialistik davlatlari hozirgi konstitutsiyalari va vijdon erkinligi to'g'risidagi qonun hujjatlarida diniy e'tiqod mavzusini turlicha talqin qildi. Avvalo, u biror mamlakatda tarixan shakllangan an'analar, jamoatchilik fikri, 80–90-yillar chegarasida yuz bergan, davlat va din munosabatlariga taalluqli bo'lgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlarning tub mohiyatini o'zida aks ettirdi.

SSSR qulagandan keyin mustaqillikka erishgan aksariyat mamlakatlar o'z konstitutsiyalarida davlatning dunyoviy xarakterini mustahkamlab qo'ydilar. Ular Ukraina, Belarus, Armaniston, Gruziya, Ozarboyjon, Qozoqiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston kabi davlatlardir. Vijdon erkinligini amalga oshirish imkoniyatini bergani sababli ko'pchilik davlatlar uchun davlatning dunyoviy xarakterda bo'lishi nisbatan maqbul sanaladi. Shu bilan birga diniy tashkilotlar ta'qib qilinmaydi va jamiyatdan ajratilmaydi.

Kooperatsion modelga mansub dunyoviy davlatlarda nisbatan ahamiyatga ega konfessiyalar bilan yoki alohida sharoitlarda bitta konfessiya bilan o'zaro hamkorlik amalga oshiriladi.

Bunday o'zaro hamkorlikning quyidagi asosiy shakllarini tavsiflash mumkin bo'lib ular madaniy sohada, ta'lim sohasida, xayriya sohasida, qurolli kuchlar orqali, jinoiy-ijro tizimlari orqali hamkorlik qiladilar. O'zaro hamkorlikning ushbu shakllari amalda kooperatsion modelga mansub barcha dunyoviy davlatlarda mavjud. Aytaylik, ularning qonunchilik bilan mustahkamlab qo'yilishi yanada konstruktiv hamkorlik uchun zarur sanaladi.

Separatsion modelga mansub dunyoviy davlatlarda o'zaro hamkorlik deyarli amal qilmaydi, din har bir fuqaro uchun xususiy masala hisoblanadi. Separatsion modelning salbiy jihati, fikrimizcha, bunday modelning ateistik rejim o'rnatilishiga zamin yaratishi mumkinligidadir.

4. Ateistik tipga XX asrda hukm surgan ko'plab mamlakatlarni misol qilib keltirish mumkin bo'lib dunyoda bitta davlat, ya'ni Albaniya 1973-yilgacha rasman konstitutsiyasida o'zini ateistik davlat sifatida e'lon qilgan va bugungi kunda dunyoviy davlat hisoblanadi. Haqiqatda ikkinchi jahon urushidan keyin Sharqiy Yevropa

mamlakatlarida o'zining ta'sirini keng yoygan sovet Ittifoqi ateistik davlat edi. Ayni paytda Shimoliy Koreya, Vetnam singari mamlakatlar ateistik davlatlar hisoblanadi. Shimoliy Koreyada "ulug' dohiy" o'rtoq Kim Ir Sen va uning o'g'li, Kim Chen Ir shaxsiga sig'inish keng tarqalgan. Shimoliy Koreyada diniy tashkilotlar maxsus davlat organlari nazorati ostida bo'lib dindor kishilar o'zlarining diniy e'tiqodlarini yashirishga harakat qiladilar.

Aslida vijdon erkinligi har qanday davlatda nafaqat istalgan dinga e'tiqod qilish huquqini, balki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik (ateizm) huquqini ham o'z ichiga oladi hamda bu huquq himoya qilinishi lozim. Ateizm davlat mafkurasining bir qismiga aylangan bir paytda bu nihoyatda salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, ateistik davlatda vijdon erkinligi imkonsiz, diniy tashkilotlar ta'qib qilinadi, dindor kishilar o'zlarining diniy e'tiqodlariga sig'inish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Ma'naviy erkinlikning yo'qligi inson shaxsiyatining kambag'allashuviga, uning to'liq davlatga bo'ysunishiga olib keladi. Bunday jamiyatlarda inson erkin bo'lishi, o'zining ijodiy va axloqiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin emas.

Xorijiy mamlakatlarda davlat va diniy tashkilotlar o'zaro hamkorligi madaniy, tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va shu kabi omillarga bog'liq bo'lib, xalqaro miqyosda diniy e'tiqod sohasidagi siyosiy omil ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Davlatchilik tuzilishining dunyoviy asoslariga ega dunyoning aksariyat mamlakatlaridagi diniy tashkilotlar qudratli fuqarolik jamiyati institutlari sanaladi. Teokratik davlatlarda ular davlatning asosini tashkil qilsa, davlat diniga ega mamlakatlarda davlatning bir qismi hisoblanadi. Ateistik mamlakatlarda esa din ta'qib ostida bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillar umumiy holda dunyo mamlakatlari konfessional qiyofasini aks ettirsa-da, har bir mamlakatda o'zaro hamkorlikning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, rasmiy yoki norasmiy tarzda alohida mavqega egalik qiluvchi dinlar mavjud. Bu har bir davlatning o'ziga xos tarixi, madaniyati mavjudligi bilan birga bugungi zamonaviy tendensiyalarni jamiyat hayotiga qanday tatbiq etayotganligi bilan ham bog'liq.

Bugungi kunda multikonfessional dunyo muhitida diniy nizolarga, dunyoning diniy o'ziga xoslikka ko'ra bo'linishiga yo'l qo'ymaslik muhim hisoblanadi. Ma'nan taraqqiy etgan jamiyatlar nizolarni qurol kuchi bilan emas balki, aql va so'z vositasida hal etishi mumkin bo'lgan tinch muloqot qila olish kuchi va imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu jahonning turli mamlakatlarida davlat va diniy tashkilotlar o'zaro hamkorligi tarixida o'z tasdig'ini topgan.

Shu munosabat bilan davlat konfessional siyosatining asosiy vazifasi "inson huquqlariga rioya qilish va davlat xavfsizligini himoya qilish o'rtasidagi maqbul muvozanatni topish va asoslash" hisoblanadi [18, 66-b].

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Морозова Л.А. Теория государства и права: учебник М.: Эксмо, 2010 – С. 57-59.
2. М.С. Топчиев. Государственная политика регулирования конфессиональных отношений в поликультурном регионе (на примере астраханской области) диссертация кандидата политических наук: 23.00.02 / Топчиев Михаил Сергеевич; [Место защиты: Астрахан. гос. ун-т]. – Астрахань, 2011. – 172 с.: ил. РГБ ОД, 61 12-23/44.
3. Paul Cliteur and Afshin Ellian / The Five Models for State and Religion: Atheism, Theocracy, State Church, Multiculturalism, and Secularism / Vienna Journal on International Constitutional Law June 8, 2020. <https://doi.org/10.1515/icl-2018-0056>
4. Живулин В.А. Теоретико-правовые основы регулирования современных государственно-конфессиональных отношений в Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук / Нижний Новгород 2006.



5. Е.Н. Салыгин. Теократические тенденции современной государственности. Журнал Общественные науки и современность.: 1996 – №5 – Б. 83–89.
6. Арбузкин А.М. Конституционное право зарубежных стран. М., 2005. – Б. 594.
7. Конституции государств Азии: в 3 т. / под ред. Т.Я. Хабриевой. – М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации: Норма, 2019. – Б. 225.
8. Религиоведение. Энциклопедический словарь. М., 2006. – С. 125.
9. Конституция Греческой республики <https://legalns.com/> правовая-библиотека / конституции-стран-мира / конституция-греции // 26.01.2022-yil holatida.
10. Понкин И.В. Правовые основы светскости государства и образования. М., 2003. – С. 107.
11. Конституции государств Африки и Океании Том 1. Северная и Центральная Африка. Ответственный редактор академик РАН Т.Я. Хабриева М.: 2018. 2-3-статья. – С. 68.
12. Никитин В. Святейший Патриарх Алексей II. Жизнь и деяния во славу Божию. М., 2009. – С. 640.
13. Понкин И.В. Указ. соч. – С. 68.
14. Вероисповедная политика Российского государства: учеб. пособие / отв. ред. М.О. Шахов. М., 2003. – С. 17–25.
15. Володина Н.В. Теоретические основы правового регулирования отношений государства и религиозных объединений: сравнительно-правовой анализ: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. СПб., 2010.
16. United States Bill of Rights // [https://en.wikipedia.org/wiki/United\\_States\\_Bill\\_of\\_Rights](https://en.wikipedia.org/wiki/United_States_Bill_of_Rights)
17. Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 184-b., 13-b.
18. Никитина Е.Е. Свобода совести: теория и практика ограничений прав в Российской Федерации // Журнал российского права. – 2013. – №12. – С. 66.